

Ayni paytda, bu borada ruhiyat va uslub nomuvofiqligi jihatidan muvaffaqiyatsiz chiqqan tarjimalar ham yo'q emas. Chunonchi, Maxtumqulining milliy va ichki ruhiyatini o'zbekcha she'rlari tarjimalari, ba'zida qoraqalpoq va ozar tillardagi tarjimalari, S.Salim Buxoriy Gyotening jo'shqin ruhini "G'arbu Sharq devoni" tarjimasida berolmagan, hassos shoirni tarjimada bosiq donishmandga aylantirib qo'gan bo'lsa, E.Vohidovning M.Svetlov she'rlaridan qilgan tarjimalari ham muvaffaqiyat qozonolmadi. Sh.Shomuhamedov ham tarjimada Bedil ruboiylarning mazmuniy teranligi, ko'p ma'noliligi, badiiy yuksakligini berolmay, ma'nolar otasi deb Sharqda ulug'langan shoirni o'rtamiyona bir ijodkor darajasiga tushirib qo'ydi. Adib Sobir Termiziy asarlari tarjimasida ham muvaffaqiyatli chiqmagan (xususan, E.Pardayev tarjimasidagi ruboiy va qit'alar)...

Tarjima jarayonida tarjimon katta rol o'ynaydi: uning tilni nechog'lik bilishidan tortib, iste'dodi, bilimi, dunyoqarashi, saviyasi, asl nusxaga munosabati, uslubi, ruhiyati... bu kabi barcha omillar u yoki bu darajada tarjimada o'z aksini topadi. Bizda tarjima sifati va tarjimon mahorati doirasida bu masalalarning ko'pi muayyan darajada tadqiq etilgan. Ayni paytda, o'rganilmagan va e'tibordan tushib qolgan omillar ham yo'q emas. Masalan, Xo'ja Alimovning fikricha, "biz tarjimonni ko'p tomonlama o'rganishimiz mumkin. Masalan, fiziologik, biologik, falsafiy, genetik-tarixiy, milliy va irqiy tomondan va hokazo" [5:258]. X.Alimov badiiy tarjima psixologiyasi muammosini o'rganib, qiziq kuzatishlarni ilgari suradi: uzoq muddat bir muallif asarlarini tarjima qilish natijasida uning ta'siriga tushish (A.Oripov "Jannatga yo'l" asarining yaratilishida "Ilohiy komediya"ning, E.Vohidovning "Sen yaxshisan, men yomondurman" she'ri yozilishida "Faustning ta'siri mavjud); "Tarjimonga xos milliy xususiyatlar va uni o'rab turgan muhitning tarjimaga ta'sir etishi" va "tarjimon yoshining tarjimaga ko'rsatgan ta'siri". O'zaro suhbatda Abdulla Oripov unga qiziq bir voqeani aytib beradi.

Adabiyotlar

1. Исмиддинов З. Алдоқчи сўзлар билан баҳс. // Таржима санъати. (Мақолалар тўплами) 5-китоб. – Тошкент: «Фан», 1980.
2. Собиров М. "Бобурнома"нинг инглизча таржималарда муаллиф услуби ва бадиятини қайта тиклаш муаммолари. НДА. – Тошкент: 2002.
3. Саломов Ф. Таржима назарияси тақрири. – Т.: «Ўқитувчи», 1978.
4. Саломов Ф. Тил ва таржима. – Т.: «Фан», 1989.
5. Алимов Х. Таржimon руҳияти. // Таржима санъати (Мақолалар тўплами). 6-китоб. – Тошкент: «Ғафур Ғулом», 1985.

REZYUME. Ushbu maqolada asl nusxa va tarjima o'rtasidagi asosiy tafovutlar, ikki til o'rtasidagi farqlar va (o'xshash) muqobil so'zlar tarjimasida haqida so'z yuritiladi. Muallif va mutarjimning ruhan yaqinligi, hamfikrligi, uslublarining mustarakligi kabi masalalar xususida baxs yuritiladi.

РЕЗЮМЕ. В этой статье рассматриваются основные различия между оригиналом и переводом, различия между двумя языками и (аналогичный) альтернативный перевод слов. Особое внимание уделяется таким вопросам, как духовная близость автора и мутарджима, единодушие, общность их стилей.

SUMMARY. This article discusses the main differences between the original text and the translation, the differences between the two languages, and the translation of (similar) alternative words. Issues such as the spiritual closeness of the author and the mutharjim, the co-existence of their style are discussed.

O'ZBEK XALQ O'LANLARIDA QO'LLANILGAN TROPLAR TABIATI

Sh.D.Turg'unov – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Turan International University

Tayanch so'zlar: o'lan, trop, metonimiya, sinekdoxa, istiora, ko'chim.

Ключевые слова: улан, троп, метонимия, синекдоха, метафора.

Key words: lancer, trope, metonymy, synecdoche, metaphor.

O'zbek xalq o'lanlari matnida metafora, metonimiya, sinekdoxa singari obrazli ko'chim turlari katta o'rin tutadi. Troplarning og'zaki lirika namunalari tarkibidagi vazifasi ularning poetik takomili yoki boshqacha aytganda, badiiy jihatdan balog'atga erishuvda namoyon bo'ladi. Shunday ekan, o'lanlarda qo'llanilgan troplarning tabiati, badiiy vazifadorligi bilan bog'liq masalalar bugungi kun o'zbek folklorshunosligi kun tartibida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy va o'quv adabiyotlaridan ma'lumki, metonimiya biror narsa yoki obrazni boshqacha nomlash vazifasini o'taydi. Fransuz faylasufi va adabiyotshunosi Pol Rikyorning metonimiya haqidagi qarashlari o'ziga xos. U

"1966-yilda, shoir endi 25 yoshga to'lganda onasi vafot etadi. Mana shu musibatli voqea ta'siri ostida u o'zining "Onajon" she'rini yozgan. Bir qancha vaqt o'tgach, mazkur she'r rus tiliga tarjima qilingan. Tarjimonning yoshi o'sha paytda 50-60 lar chamasida bo'lgan. O'zbek shoirining aytishicha, bu uning she'rlaridan qilingan tarjimalar ichida muvaffaqiyatsiz chiqqan tarjimalardan biri ekan. Bu dalilni yoshi bir joyga borib qolgan tarjimonning onadan judolikda paydo bo'ladigan favqulodda qayg'uli hissiyotni aynan idrok qila bilmaganligi bilan tushuntirsa bo'ladi" [5:261-262]. Yoki xalq o'rtasida *o'zbekning to'g'ri gapi yo'q*, degan bir hikmat yuradi. Buning ma'nosi ko'pgina o'zbekcha so'zlar ko'p ma'noli bo'lib, ularni har tarafga bursa, turlicha talqin qilsa bo'ladi. Xo'sh, sinonimlarga boy bo'lmagan bir tilga o'zbekcha ko'p ma'noli so'zlarni o'g'irsa, matnning butun ma'no qirralari aks etadimi?

"Ma'lumki, xalqlarning turmush tarzi, tirikchilik sharoitlari, urf-odat, rasm-rusum, irim-chirim, udumlarida juda katta farqlar borki, mavjud rosmnoma lug'atlardan ularning nomlariga muqobil so'z topib bo'lmaydi, basharti, topilgan taqdirda ham ulardan foydalanish qiyin, negaki, bunday so'z asarda tasvirlangan voqeaga o'zgacha milliy ma'no berishi mumkin" [3:54].

Har qanday tilning ham umumiy va xususiy jihatlari mavjud: tildagi umumiyliklarni boshqa tilda berish qiyinchilik tug'dirmagani holda, xususiyliklar tarjimonni mushkul ahvolga solib qo'yadi. Bu har bir tilning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Masalan, u yoki bu tilga xos ko'p ma'nolik, so'z o'yinlari, ma'no tovlanishlarini boshqa tilda aslidagiday aks ettirish nihoyatda qiyin, ba'zan hatto mumkin emas.

Turkiy she'riyatda tajnis san'ati keng ishlangan. Bu san'at omonimlar – shakldosh so'zlar asosiga quriladi. Shu asosda tuyuq janri kelib chiqqan. Tuyuqni faqat turkiyshunos olim Sergey Ivanovgina tarjima qilishning uddasidan chiqqan.

metonimiyaga bir nomning aloqadorlik, mansublik jihati-dan boshqa nom bilan almashinishi tufayli yuz beradigan semantik ko'chim, deb baho beradi. Bunday almashtirishda narsa yoki hodisaning ma'nosi va mohiyati mutlaqo o'zgarmay qoladi [6:146]. Biz ham xalq o'lanlaridagi ma'no aloqadorligi bilan bog'liq ko'chimlar haqida fikr yuritganimizda P.Rikyorning konsepsiyasiga amal qilishga harakat qilamiz. A.A.Potebnya metonimiyaga xos xususiyatlar haqida to'xtalar ekan, mazkur ko'chimning narsa bilan ko'chirilgan ma'no o'rtasida aloqadorlik, mansublik va yaqinlikka asoslanishini ta'kidlaydi, aloqadorlik, yaqinlik hamda mansublikning makon va zamonda voqe

bo'lishini aniq misollar tahlili orqali ko'rsatadi [5:182-202].

Professor A.Fitrat metonimiya o'rnida majoz terminini qo'llaydi. Uning izohiga ko'ra, majoz metonimiyaning aynan o'zidan iborat. U, jumladan, shunday yozadi: "Bir so'zni o'z ma'nosidan boshqa bir ma'no uchun ishlatmagidir. Shul shart bilankim, bu ikki ma'no o'rtasida o'xshatishdan boshqa bir turli yaqinlik, boylanish bo'lsun" [12:68]. Shunga yaqin izohlardan biri I.Sultonning "Adabiyot nazariyasi" kitobida ham mavjud. U yozadi: "Majozlarning keng tarqalganlaridan biri – metonimiyadir. Metonimiya ikki narsa o'rtasidagi o'xshashlikka emas, balki ikki tushuncha o'rtasidagi yaqinlikka asoslangan majozdir. Mazkur fikr uning keyingi ishlarida ham rivojlantirildi. U yozadi: "Bir narsani o'z nomidan boshqa nom bilan aytish metonimiya (o'zbek mumtoz adabiyoti terminologiyasida "kinoya") deb ataladi. (Metonimiya (yunoncha) – "boshqa nom bilan atash" demakdir) Metonimiya tilga olinmagan nom bilan tilga olingan nom orasida ma'nani to'la uyg'unlik borligini taqozo etadi" [10:218-219].

Uning o'lan misralaridagi ishtiroki to'g'risida tasavvur hosil bo'lmog'i uchun dastlabki misolni keltirib o'tamiz:

Burungilar aytishuvni o'lan debdi,

O'lan bilsang yonboshla yonimga kep [13:110].

Ushbu misoldagi metonimik ko'chim "burungilar" so'zi orqali ifodalangan. Leksik-semantik jihatdan olib qaralganida, aslida vaqt kechimini anglatuvchi bu ravish o'tmishga mansublik semasiga ko'ra "ota-bobolarimiz" yoki "ustoz o'lanchilar" degan tushunchalarni ifodalamoqda.

Yana ayrim misollarni ko'rib o'taylik:

Ish ko'rsatgan orden taqar to'shiga,

Cho'ponlarning boring tomoshasiga. [13:23].

Birinchi misradagi "ish ko'rsatgan" so'z birikmasiga e'tibor bering. Unga "dehqon", "cho'pon", "ziyoli", "rahbar" va hokazo so'zlardan birining ma'nosi o'zaro aloqadorlik tufayli metonimik ko'chgan.

Olgani er yigitning bo'lsa yaxshi,

Buralib tolchiviqday uydin chiqar. [13:35]

Mana shu misralardagi she'riy ifoda adabiy normadagi stilistik qolipga solingudek bo'lsa, "Er yigit uylangan qiz yaxshi bo'lsa, mehmon kelganida uydan tolchiviqday buralib (ya'ni ibo va hayo bilan) chiqadi" shaklidagi shart ergash gapli qo'shma gapga aylanadi. Lirikaning lingvotekstual qonuniyati esa buncha cho'ziq, ritm va ehtirossiz ifodani qabul qilmaydi. Shu boisdan metonimiya san'ati qo'l kelib, "Er yigit uylangan yaxshi qiz" jumlasining ma'nosini birgina "olgani" so'zi ifodalamoqda.

Erman sari,

Erman degan pitadi tovdan nari. [13:111].

Erman – tog'ning yuqori joylarida o'sadigan yog'ochi juda mustahkam, uncha-muncha bo'ron va dovulga egilmaydigan daraxt. Xalqimiz orasida "Er yigitning uyalgani – erman daraxtining egilgani" degan matal mavjud. Keltirilgan misolda metonimik so'z tejash usulida "daraxt" so'zi tushirib qoldirilgan. Ya'ni "erman" so'zi ko'chim orqali daraxt ma'nosini ham anglatmoqda.

O'lan misralariga obrazlilik bag'ishlab, ifodani ixcham va aniq berishga, tasvirning yorqin va ta'sirchan chiqishiga katta yordam beradigan badiiy ko'chim turlaridan biri sinekdoxadir. Sinekdoxa metonimiya singari narsalar o'rtasidagi aloqadorlik va mansublik munosabatlarini ifodalagan uchun ilmiy adabiyotlarda metonimiyaning bir ko'rinishi sifatida talqin qilinadi. [3:854-855; 11:237-238; 4:246; 14:178; 1:163-164; 10:57; 2:141-142; 9:97]

Ammo sinekdoxadagi aloqadorlik metonimiyadan farqli ravishda biron narsaning qism yoki bo'laklari orqali yaxlit tasavvur tug'diradi. Bunday talqin deyarli barcha terminologik lug'atlarda mavjud. Masalan, L.I.Timofeev va S.V.To'rayevlar tomonidan tuzilgan adabiyotshunoslik terminlari lug'atida sinekdoxa haqida shunday izoh berilgan: "Sinekdoxa – ko'chimlardan biri, bir predmetdan

boshqa predmetga miqdoriy belgilar asosida ma'noni ko'chirishga asoslangan metonimiyaning ko'rinishlaridan iborat" [8:351]. N.Hotamov va B.Sarimsoqovlarning adabiyotshunoslik terminlari lug'atida ham shunga o'xshash izohlar berilgan: "Sinekdoxa – metonimiyaning bir ko'rinishidan iborat ko'chim: unda bir qism yo bo'lak orqali yaxlit, butun narsa bildiriladi va aksincha, butun hodisa orqali ayrim bo'lak haqida fikr yuritiladi" [13:281].

O'zbek xalq o'lanlari bo'yicha to'plangan faktik materialimiz yuqoridagi hukmning to'g'riligini tasdiqlaydi. Masalan:

Shu to'ylarga aruvlash kelmay qolsa,

Tomga chiqib qarayman oynak bilan [13:97].

Ma'lumki, "oyna" so'zi quyidagi ikki xil ma'noga ega:

1. Deraza romlariga o'rnatiladigan qummi kimyoviy texnologiyalar yordamida qayta ishlash orqali hosil qilinadigan shaffof jism; 2. Qarshisidagi inson, narsa-jismlar tasvirini aynan aks ettiradigan ko'zgu. Yuqorida keltirilgan o'landan parcha mazmunida ijrochi lirik qahramon ko'ngliga ma'qul tushgan aruvlashi to'ydagi aytishuvga hadeganda kelavermasa, tomga chiqib uning yo'lga durbin bilan qarashini bildirmoqda. So'nggi misradagi "oynak" so'zi sinekdoxa yo'li bilan durbin tushunchasini uning bir qismi bo'lgan linza orqali ifodalamoqda.

Demak, metonimiyaga xos narsa, hodisalar o'rtasidagi ma'no ko'chishining ular o'rtasidagi aloqadorlik, mansublik yoki yaqinlik munosabatlariga asoslanishi sinekdoxaga ham to'la taalluqli. Ularni farqlash uchun, bizningcha, yaxlit, butun narsa yoki hodisalardagi ma'no ko'chimini – metonimiya, ularning qism va bo'laklari o'rtasidagi ma'no ko'chimlarini sinekdoxa deb yuritish ma'qulroq. Qolaversa, u yoki bu terminni qo'llash yoki izohlashda fanda an'ana sifatida davom etib kelayotgan izohlardan kechish foydadan ko'ra ko'proq chalkashliklar keltirib chiqaradi.

Sinekdoxa metonimiya singari nutqning tejash tamoiylari asosida yuzaga keladi. Aytish mumkinki, sinekdoxa – metonimiyaning eng yuqori darajadagi ko'rinishi. O'lanchilar xalqning jonli tilidagi sinekdoxalardan

keng foydalanadilar. Misol uchun:

O'lanni boshla desang chevar boshlar,

Do'ppimning boshimdagi ichi astar.

O'lanning yaxshisi bor, yomoni bor,

Aytaylik qaysidan, qalamqoshlar? [13:159].

Qosh – inson tanasining bir qismi. Qizlar orolanganida unga qalam yoki o'sma suradilar. Yuqoridagi o'lan ijrochisi atrofda tinglovchi qizlarga murojaat qilar ekan, ularning nomini sinekdoxa yo'li bilan "qalamqoshlar" deydi. Shunday deyilganida ham biz sinekdoxa san'ati to'g'risidagi ko'nikmalarimiz tufayli misra mazmunini to'liq tushunav-eremiz.

Quyidagi o'lan namunasi tarkibidagi "qora ko'z" ham qism orqali butunni anglatish mohiyatiga monand tarzda, oshiq yigit yangasiga yozg'irishicha, vasliga yetisha olmayotgan mahbusasini ifoda qilish barobarida nutqiy jarayonda so'zni iqtisod qilish bilan birga obrazlilikni ham ta'min etgan:

Ekdin g'o'za, ko'zingdan, ekdin g'o'za,

Yozi bilan ishladim toki kuzga.

Jon yanga, jonim yanga, arzim senga,

Etihsar kun bormikan qora ko'zga? [13:108]

Yozma adabiyotda "oy yuz", "gul ro'y" singari an'anaviy ko'rinishdagi istioraviy ko'chimlar quyidagi ijod namunasi nomadik madaniyat vakiliga xos samimiyat bilan xalqona tarzda "chiroyli bet" deya sinekdoxaviy ko'chim voqelantirilgan:

To'raylab o't,

Qo'yning suvdan o'tmasa quraylab o't.

Qushga taqqan qo'ng'iroqday shildiraysan,

Akang sendan o'rgilsin, chiroyli bet [13:68].

Maqolada bahs yuritilgan munozara natijasi o'laroq bizda quyidagicha xulosa yasash imkoni paydo bo'ladi:

1. Badiiy matnni lingvopoetik tahlilga tortganda trop turlarining deyarli barchasi asosida o'xshatish, chog'ishtirishdan iborat mantiqiy tushuncha yotganligi ayon bo'ladi;

2. Ko'chimlarning og'zaki lirika janrlari, xususan, o'lanlar tarkibidagi badiiy vazifadorligi muhim ahamiyatga molik;

3. O'lanlardagi ko'chimlar an'anaviy ko'rinishdagi istioraviy ko'chimlardan nomadik madaniyat vakiliga xos samimiyat ufurib turishi hamda xalqonaligi bilan o'zgachalik kasb etadi;

4. Tropning sinekdoxa turi o'lan misralariga obrazlilik bag'ishlab, ifodani ixcham va aniq berishga, tasvirning yorqin va ta'sirchan chiqishiga katta yordam beradi.

Adabiyotlar

1. Абрамович Г.Л. Введение в литературоведение. -М.: «Просвещение», 1975. - С.163-164.
2. Еремина В.И. Поэтический строй русской народной лирики. - Л.: «Наука», 1978. - С141-142;
3. Краткая литературная энциклопедия. Т.6. -М.: Советская энциклопедия, 1971. -С.854-855;
4. Поспелов Г.Н. Иносказательная изобразительность и выразительность слов. // Введение в литературоведение. - М.: «Высшая школа», 1976. -С. 246.
5. Потебня А. Метонимия. //А.А.Потебня. Теорическая поэтика. - М.: «Высшая школа», 1990. -С. 182-202.
6. Рикёр Поль. Теория интерпретации. Дискурс и избыток значения. -М.: «Прогресс», 1976.-С.146.
7. Саримсоков Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. - Т.: «Ўқитувчи», 1979. 281-б.
8. Тимофеев Л.И., Тураев С.В. Словарь литературоведческих терминов. - М.: «Просвещение», 1974. - С.351.
9. Сидельников В.М. Поэтика русской народной лирики. - М.: «Учпедгиз», 1959. - С.97.
10. Султон И. Адабиёт назарияси. -Т.: «Ўқитувчи», 1980. 218-219-б.
11. Томашевский Б.В. Стилистика и стихосложение. - Л.: «Учпедгиз», 1959. - С.237-238;
12. Фитрат А. Адабиёт қоидалари. - Т.: «Ўқитувчи», 1995. 68-б.
13. “Ўлан айтсанг бери кел, айнам-ов” (ўланлар). // Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. Ж.26. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2020.
14. Хотамов Н., Саримсоков Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. - Т.: «Ўқитувчи», 1979. 281-б.
15. Щепилова Л.В. Введение в литературоведение. -М.: «Высшая школа» 1968. -С178.

REZYUME. Maqolada o'zbek xalq o'lanlari matnida badiiy tasvir vositalari, xususan, ko'chimlar keng qo'llanilgan. Ularni metafora, metonimiya, sinekdoxa singari turlari va troplarning o'lanlar tarkibida poetik vazifadorligini aniqlashtirish folklorshunosligimiz oldida turgan dolzarb muammolardan biridir. Mazkur maqolada ayni shu masalalar xususida bahs yuritilgan.

РЕЗЮМЕ. В тексте узбекских народных песен (улан) широко используются средства художественного изображения, в частности тропы. Выяснение поэтической роли метафор, метонимии, синекдохи и тропов в композиции народных уланов — одна из актуальных проблем, стоящих перед нашим фольклористическим исследованием. В этой статье обсуждаются те же вопросы.

SUMMARY. The text of Uzbek folk songs (ulan) widely uses as means of artistic depiction, in particular tropes. Clarification of the poetic role of metaphors, metonymy, synecdoche and tropes in the composition of folk lancers is one of the pressing problems facing our folklore research. This article discusses the same issues.

NURMUHAMMAD ANDALUB – XORAZMLIK MASHHUR ADIB

U.Zaripboyeva – talaba

Namangan davlat universiteti

Tayanch so'zlar: Xorazm, o'zbek va turkman shoirlari, Nurmuhammad Andalib, “Bulbul”, Munis, adabiy siyosat, Ogahiy, adabiyotshunoslik, Bayoniy, bayoz, dostonnavis, adabiy aloqalar, muxammas, murabba, muvashshax.

Ключевые слова: Хорезм, узбекские и туркменские поэты, Нурмухаммад Андалиб, «Соловей», Мунис, литературная политика, Огахи, литературоведение, Баяни, Баяз, прозаик, литературные связи, мухаммас, мурабба, мувашшах.

Key words: Khorezm, Uzbek and Turkmen poets, Nurmuhammad Andalib, “Nightingale”, Munis, literary policy, Ogahi, literary studies, Bayani, Bayaz, novelist, literary relations, mukhammas, murabba, muvashshakh.

Xorazm adabiy muhiti o'zbek adabiyotining ajralmas bir qismini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “Jo'shqin Amudaryodan suv ichib, muqaddas va tabarruk Xorazm tuprog'ida unib-o'sgan, xalqimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Muso Xorazmiy, Mahmud Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Nosiriddin Rabg'uziy, Sulaymon Boqirg'oni, Sakkokiy, Munis, Feruz, Ogahiy, Bayoniy va boshqa ko'plab allomalar, shoir va mutafakkirlarning nomlari jahon sivilizatsiyasi tarixiga haqli ravishda oltin harflar bilan bitilgan” [1:241].

O'zbek va turkman xalqlari o'rtasidagi qardoshlik, adabiy-madaniy aloqalar juda qadimiy tarixga egadir. Ikki xalq o'rtasidagi adabiy aloqalarimizning yaqinligiga guvoh bo'luvchi o'nlab dostonlar, xalq kitoblari borki, ulardan ayrimlarining dastavval qaysi xalq o'rtasida paydo bo'lganligini aniqlash qiyin. XVII – XIX asrlar mobaynida o'zbek va turkman shoirlari tomonidan ko'plab asarlar yaratildi, madaniy taraqqiyotga ulkan hissa qoshildi. Sobir Sayqaliyning “Bahrom va Gulandom”, so'ngroq ko'hna Urganch va Vas (Toshovuz) tomonlarida yashagan Shohbandaning “Shoh Bahrom”, XVIII asr oxirlarida yashagan turkman shoirlari Shaydoyi yaratgan “Gul Sanobar”, Ma'rufiy yaratgan “Yusufbek va Ahmadbek” dostonlari g'oyaviy-badiiy xususiyatlariga ko'ra, shu nomdagi o'zbek xalq kitoblari nusxalariga juda yaqin. Bunday asarlar ko'p. Ular turkman kitobxonlariga qanchalik estetik zavq, ma'naviy oziq bag'ishlasa, o'zbek

kitobxonlariga ham shunchalik zavq va ma'naviy oziq beradi [2:127].

Mustaqillik yillarida o'zbek tili va adabiyoti faniga alohida e'tibor berilmoqda. 2016-yil 13-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida” Farmoni muhim ahamiyatga ega bo'ldi [3].

Nurmuhammad Andalibning ismi, tug'ilgan joyi va hayoti haqidagi ma'lumotlar ancha kam hisoblanadi. Biz u haqidagi ma'lumotlar uning asarlari va boshqa manbalar orqali topishimiz mumkin. Uning ismi Nurmuhammad tahallusi Andalib (Bulbul). Ko'hna Urganchning Qoram-oz qishlog'ida tug'ilgan. Xiva va Buxoro madrasalarida ta'lim olgan. Munis va Ogahiyning “Firdavs – ul iqbol”, Bayoniyning “Xorazm shohiy” asarlarida u haqida ma'lumotlar mavjud [4].

Mumtoz adabiyotda “Andalib” tahallusi bilan ijod qilgan shoirlar ko'p bo'lgan. Bu haqda V.Abdullayev “O'zbek adabiyoti tarixi”ning uchinchi jildida ma'lumot beradi. Shu bilan birga, “Layli va Majnun”, “Yusuf va Zulayho”, “Zaynularab” kabi dostonlarning muallifi Nurmuhammad Andalib haqidagi qimmatli ma'lumotlarni ham tilga oldi [5:336].

Nurmuhammad Andalub “Yusuf va Zulayho” dostoni yozilgan payti u 55 yoshda bo'lgan. Bu haqida shu asarda yozib qoldirgan. Bundan xulosa qilish mumkinki, u taxminan 1710-1711-yillarda tug'ilgan, 1770-yilda vafot etgan.